


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
2. Murodov G‘ayrat Nekovich EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
3. Чупонов Отаназар Отажонович РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
4. Худайбергенова Умида Комилджановна СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
5. Pardayeva Sojida Ahmatovna WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
11. Абдиева Камола Аслидин кизи ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

IQTISODIYOT

1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
2. Кипкеева Асият Магомедовна ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
3. Annazarova Barno Rustamovna RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**
GENDER IJTIMOYILASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

TIBBIYOT

- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

TARIX

- 1. Mustafa Demirci**
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

Davlatova Saodat Tilovberdiyeva,

tarix fanlari doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi

Millatlararo munosabatlar qo'mitasi Markazi rahbari


E-mail.: saodatdavlatova70@gmail.com

Matkarimova Nazokat Maksudovna,

PhD., Ma'mun universiteti dotsenti

E-mail.: ms.mmm.79@mail.ru

**МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ СОҲАСИДАГИ
ФАОЛИЯТИ**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515813>

ANNOTATSIYA

Maqolada birinchi renessans davrida faoliyat yuritgan Ma'mun akademiyasi, unda faoliyat ko'rsatgan olimlar, allomlarning jahon ilmu faniga qo'shgan hissasi, Xorazmning intellektual meros tarixida tutgan o'rni tarixiy manabalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, Xorazmshoh Ma'muniylarning musiqa san'atiga bo'lgan ijobiy munosabati hamda Ma'mun akademiyasi olimlarining musiqa ilmi va nazariyasini rivojlantirish sohasida olib borgan ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xorazmshohlar sulolasi, Anushteginiy, Xorazmshoh unvoni, Ma'mun davri, Ma'mun akademiyasi, Renessans, Gurganj, devonxona, Akademiya olimlari, Xorazm maqomlari, musiqa ilmi, musiqa nazariyasi, kuy, sozanda, musiqa asbobi, nota chizig'i.

Davlatova Saodat Tilovberdiyeva,

Doctor of Historical Sciences, Associate Professor,

Head of the Center of the Committee of Interethnic Relations

under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan

E-mail.: saodatdavlatova70@gmail.com

Matkarimova Nazokat Maksudovna,

PhD., Associate Professor at Mamun University

E-mail.: ms.mmm.79@mail.ru

**“GOLDEN AGE” OF THE KHORAZMSHAH MAMUNIDS STATE
AND THE ACTIVITIES OF MAMUNA ACADEMY SCIENTISTS IN THE FIELD OF
MUSICAL SCIENCE**

ABSTRACT

The article, based on historical sources and historical sources, analyzes the Mamun Academy, which operated during the first Renaissance, the contribution of the scientists who

worked there to world science, the place of Khorezm in the history of intellectual heritage. The positive attitude of the Mamunids to the art of music and the activities of scientists at the Mamun Academy in the development of musical science and theory are also analyzed.

Keywords: Dynasty of Khorezmshahs, Anushtegini, title of Khorezmshah, era of Mamun, Mamun Academy, Renaissance, Gurganj, scientists of the Academy, Khorezm makomi, music science, music theory, melody, musician, musical instrument, notes.

Давлатова Саодат Тиловбердиевна,

доктор исторических наук, доцент

Руководитель Центра Комитета межнациональных связей
при Министерстве культуры Республики Узбекистан

E-mail.: saodatdavlatova70@gmail.com

Маткаримова Назокат Максудовна,

PhD., доцент университета Мамуна

E-mail.: ms.mnm.79@mail.ru

«ЗОЛОТОЙ ВЕК» ГОСУДАРСТВА ХОРЕЗМШАХ МАМУНИДОВ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧЕНЫХ АКАДЕМИИ МАМУНА В ОБЛАСТИ МУЗЫКАЛЬНОЙ НАУКИ

АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических источников и исторических источников анализируется Академия Ма'муна, действовавшая в период первого Возрождения, вклад работавших в ней учёных в мировую науку, место Хорезма в истории интеллектуального наследия. Также анализируется положительное отношение Ма'мунидов к музыкальному искусству и деятельность ученых Академии Мамуна в области развития музыкальной науки и теории.

Ключевые слова: Династия хорезмшахов, Ануштегини, титул хорезмшаха, эпоха Мамуна, Академия Ма'муна, Возрождение, Гургандж, канцелярия, ученые Академии, Хорезмские макоми, музыкальная наука, теория музыки, мелодия, музыкант, музыкальный инструмент, ноты.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Xorazm qadimiy tarixiy-etnografik mintaq va ilm-fan hamda madaniyat markazi sifatida butun dunyoga dong taratgan. Shuningdek, bu yerda hayratomuz go'zallikka ega shaharlar barpo etilgan, bu zaminda buyuk matematiklar, astronomlar, tabiblar, qomusiy olimlar, shoirlar va yetuk allomalar yashab ijod qilgan. Qolaversa, buyuk olamshumul ilmiy kashfiyotlar matematika, geodeziya, astronomiya, tarix, adabiyot va san'at hamda ular bilan bir qatorda xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atning o'lmas durdonalari ham shu maskanda yaratilgan [Матякубов Ш.С., Жуманиязова Ф.Ж., Ражабова Д.Ш., 2022. 57-60].

Bundan tashqari, Xorazmning mo'jizakor musiqasi uning tarixiy rivoyatlarida, afsona va dostonlarida ham o'z aksini topgan. Rivoyatlarda aytilishicha, "Xorazm poytaxti Ko'hna Urganch ma'mur va obod zamonlarda Ko'hna Urganch shahrida sokin bo'lgan odamlarning aksariyati musiqiyini o'zlarina bir hunar va kasb ittixoz qilganlar [Мулла Бекжон Рахмон ўғли, Мухаммад Юсуф Девонзода. 1998, Б.26].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Mashhur etnograf olim Iso Jabbarovning ta'kidlashicha, X asr oxirlarigacha Xorazm ikki hokimlikdan iborat edi. 995 yilda Gurganj (Ko'hna Urganch) hokimi Kot shahrini egallashi bilan ikki hokimlikka barham beradi [Жаббаров И. 1999, 112 б]. X asr oxirida Xorazmshoh unvonini qabul qilgan Ma'mun ibn Muhammad 996-yilda ikkinchi Xorazmshohlar sulolasiga asos soldi [Толстов С.П. С.115]. Ayniqsa, Ma'mun II davrida Gurganch (Urganch) Sharq mamlakatlaridagi yirik markazlaridan biriga aylangan. Unda savdo, hunarmandchilik, madaniyat va fan rivojlanadi.

Uning boshqaruvi ostida poytaxti Gurganch (Ko'hnra Urganch) bo'lgan Xorazm yagona davlat bo'lib qoladi va harbiy-siyosiy hamda iqtisodiy jihatdan yanada mustaqillik va qudrat kasb etadi. Bu davrdan boshlab, Ofrig'iylar (ko'pgina tarixiy adabiyotlarda Afrig'iylar nomi bilan ham ataladi) sulolasi barham topadi va Ma'muniylar sulolasi xukmronligi boshlanadi. Ko'hnra Urganch esa tezda Xorazmshohlar poytaxtiga aylanib, qayta rivojlana boshlaydi [*Жаҳон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача).* 2011. 133]

Ma'mun I vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Ali ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munlar ilm-madaniyatni qadrlaydigan, ma'rifatparvar hukmdorlardan edilar. Ular mamlakat mustaqilligi, uning iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun sa'y harakat qildilar. Bu ma'rifatparvar hukmdorlar tez orada Xorazmdagi qadimiy ilmiy-madaniy an'analarni qaytadan tiklaydilar.

XI-XII asrlarga kelib Gurganch buyuk Xorazmning go'zal va ajoyib poytaxti bo'lib taniladi. Dunyoning juda ko'p yerlarini aylangan atoqli arab sayyohi va geografi Yoqut yozadi: "Men umrimda bu shaharga o'xshash boy va chiroyli shaharni ko'rmaganman. Bitmas-tuganmas boyliklari va poytaxtining kengligi hamda aholisining juda ko'pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahriga o'xshagan shahar bo'lmasa kerak deb o'ylayman" [*Жабборов И. 1999, 113 б*]. Istahriyning ta'rificha: "Gurganch Xorazmning eng katta shahri... u o'g'uzlar bilan savdo qiladigan joy bo'lib u yerdan Jurjoniya, Xozorlarga, Xurosonga karvonlar jo'naydi". Istahriydan oldinroq Xorazmga kelgan Ibn Batuta: "Urganch aholisining ko'pligidan dengiz singari to'lqinlanib turadi", deb yozgan [*Жабборов И. 1999, 113 б*].

Ma'lumki, xorazmliklarning oddiy odamlaridan tortib, eng oliy tabaqa vakillarigacha bo'lgan aholisi o'zini soz san'atiga yaqin tutgan. Ma'muniy hukmdorlar ilm-ma'rifat, san'at va madaniyat homiylari bo'lib, o'zlarida ham ilm bilimga rag'bat kuchli bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirishicha, Muhammad Xorazmshoh Ma'mun II musiqa va she'riyatni chuqur idroklaydigan, atrofidagi shoir va sozandalarga nozik uqtirishlar qiladigan podshoh bo'lgan [Н. Норкулов. 1979, Б.25]. Xorazmshoh Sulton Muhammad o'zi barbat (ud)da navba (turkumli asar) lar chalib huzur topishni odat etgan. Hattoki Xorazmshoh muhim davlat ishlariga qo'l urishdan oldin unga ruhiy tayyorlanib, miriqib kuy chalib, aql va tuyg'ularini sozlab bo'lgandan keyin kirishar ekan [Шеримматов Ж.Ш. 10.56017/2181-4562. Б.178].

TADQIQOT NATIJALARI.

Ma'muniylar davrida Xorazm iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan mislsiz darajada taraqqiy etdi, dunyoning eng nufuzli savdo markaziga aylandi. Buning natijasida ilm-fan ham o'z taraqqiyotini boshladi. X asrning oxiri XI asr boshlarida Xorazmda siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratga erishgan Ma'muniy Xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, davlat ichki va tashqi siyosatini olib borish maqsadida 1004-yildan boshlab Gurganchda "Dor-ul hikma va maorif" (ba'zi bir manbalarda "Majlisi ulamo") nomini olgan ilmiy muassasaga asos solishgan va Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto Iroqdan ko'plab olimlar Gurganchga kelishgan [Mahmudov M. 2005, B.60]. Ma'mun ibn Ma'mun davrida (1009-1017) Urganchda Ma'mun Akademiyasi tashkil etilib, bu yerda fan va san'atning eng yetuk namoyondalari to'planadi [*История Хорезма с древнейших времен до наших дней. 1976, 102 с*].

Xorazm Ma'mun Akademiyasini Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al Ja'diy (X asr -1034), Abulxayr ibn Hammor (941-1048), Abu Saxl Iso ibn Yah'yo al Masihiy al Jurjoniy (970-1011), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy, Abu Ali al Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030 y. v. e.), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as Saolibiy an Naysaburiy (961-1038), Ahmad ibn Muhammad as Sahriy (1015 y. v. e.), Abu Ali al Hasan ibn Horis al Hububiy al Xorazmiy (X- XI asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al Xorazmiy (X-XI asrlar) va boshqa olimlar tashkil etgan [<https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xorazm-mamun-akademiyasi-uz/>].

Ma'mun Akademiyasi olimlari davrasida o'zining teran bilimi va notiqligi bilan mashhur bo'lgan Abu Mansur as-Saolibiy o'z asarlarida turli xil tarixiy voqealar bilan bir qatorda X-XI

asrlarda yashab o'tgan 124 ta (104 tasi O'rta Osiyolik) alloma, shoir va ijodkorlarni tilga oladi. Jumladan, Xorazm vohasida yetishib chiqqan Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad ibn Shabib at-Shabibiy, Abu Muhammad Abul Qosim ibn Zirg'om kabi olimlar ham ko'rsatilgan [Жабборов И. 1999, 116 б].

Shu tariqa bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "Platon", Bag'doddagi "Baytul hikma" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan hamda hind, yunon, arab va shunga o'xshash boshqa o'lkalar olimlarining ishlari o'rganilgan.

Bizga ma'lumki, IX – XI asrlarda Xorazm tarixida oltin davr deb yuritiladi. Chunki, bu davrda Xorazm ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida ham yuksak natijalarga erishgan. Avvalo, davlatchilikning taraqqiy etishi dastlab ma'muniylar va keyinchalik anushteginiylar davlatini barqarorlashtirdi [*Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмиюҳлар далами тарихи "Наврўз", 2016. 316 бем*].

Xorazm juda qulay geografik mintaqada joylashganidan tashqari nihoyatda boy o'lka edi. Arab xalifaligi qaramligidan chiqib, mustaqillikka erishganidan so'ng, Movarounnahrning boshqa viloyatlarida bo'lganidek, bu yerda ham iqtisodiy, madaniy hayot keng ko'lamda taraqqiy eta boshladi. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, hunarmandchilik, savdo va shahar qurilishi rivojlandi. Gurganj, Kot, Xiva, Xazorasp va boshqa shaharlarning mavqei oshib, jahon savdosining yirik markaziga aylandi. Xorazm zaminidan o'tadigan qadimgi ipak yo'li savdosi yana jonlandi. Amudaryoning har ikkala sohilida yangi-yangi shaharlar va obod qishloqlar barpo etildi.

X asrda yashagan arab tarixchisi Istaxriy o'sha davrda Xorazmda mavjud bo'lgan 13 ta yirik shaharning nomini tilga olgan. Bular Darg'on (Darg'on-ota), Xazorasp, Xiva, Xushmison, Ardaxushmison (Vayangon), Saffardod (Saffardiz-Xonqa), No'zvar (Buldumsoz), Kardaronxos (Kalajik), Darxos (Gurlan), Zamahshir (Izmuxshir), Andariston (Pursi), Kordor (Kurdor), Varategin, Madminiya, Jurjoniya (Ko'hna Urganch), Amuning o'ng sohilida Kot (Shobboz-Beruniy), Ko'rdor (Chimboy) shaharlaridir. Istaxriydan yarim asr keyin yashagan arab sayyohi Muqaddasiy Xorazmda 40 ga yaqin shahar mavjudligi haqida ma'lumot berib, ularning nomlari va oraliq masofalarini ko'rsatib o'tadi. Demak, bir necha o'n yil ichida Xorazmda shaharlar soni uch barobarga ko'paygan. Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan shaharlarda me'moriy qurilish ishlari kengaytirilgan. Shaharlar yiriklashgan, ularda muhtasham imoratlar, hashamatli saroylar, masjidular, madrasalar, kutubxonalar, hammomlar, serfayz bog'lar, orasta bozorlar, hunarmandchilik ustaxonalari va do'konlari va boshqa imoratlar barpo etilgan. Karvon yo'llarida savdogar va sayyohlar uchun maxsus qo'noq joylar – rabotlar qurilgan.

Xorazmning tashqi mamlakatlar bilan, ayniqsa, Qora dengiz bo'yi, Kiev rusi, Orol bo'yi va Volga bo'yi, Hindiston, Eron davlatlari bilan siyosiy va savdo aloqalari kuchaygan.

Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun davrida poytaxt Gurganj nihoyatda chiroyli qiyofaga kiradi. Xorazmshoh o'z saroyini ilm-ma'rifat markaziga aylantirib, nafaqat Xorazmdan, shuningdek, Sharqning boshqa joylaridan mashhur olimu ulamolar olib kela boshladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ali ibn Ma'mun farmoni bilan shoh saroyi yaqinida yirik kutubxona ochilib, nodir qo'lyozmalar to'planadi.

Xorazmshoh ma'muniylar davri allomalari Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratishi bilan birga musiqa nazariyasi "Ilmi musiqiy" bo'yicha ham ilmiy asarlar yaratganlar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir yangi davrni ochib berganlar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo'llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Gurganj tez orada nafaqat ma'muriy va iqtisodiy jihatdan, balki ilm-fanning asosiy markaziga aylandi. Ma'mun akademiyasiga jalb etilgan Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Chag'miniy, al-Jurjoniyy kabi allomalar Xorazm maqomlarini "Duvazdax maqom", ya'ni o'n ikki maqom shaklida rivojlantirib, yilning har bir oyiga, har bir kunu-tuniga bag'ishlab kuy bastalaganlar. Buni IX-XIII asrlarda Xorazmga kelgan arab sayyohlari Yoqut Xamaviy, Maqdisiy, ibn Rusta, ibn al-Xaysamiy va boshqalar ham qayd etganlar. "Jurjoniya eli, o'z maqomlarini behad qadrlaydi, mamlakat poytaxti Gurganjda musiqa asboblari yasab tirikchilik qiladigan mahallalarni

o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim”, – deb yozadi Yoqut Hamaviy o‘zining “Mu‘jam al-buldon” nomli asarida. Haqiqatdan ham, Xorazm maqomlarining ovozi yetti iqlimga tarqalgan edi, bu maqomlarni o‘z yurtini tark etgan hofiz va mashshoqlar Buxoro va Samarqand, Shosh va Shirvon, Iroq va Damashq, Rum va Oltin O‘rdada, Qrim va Sharqiy Turkiston o‘lkalarida ijro etib yurganlar.

Abu Rayhon Beruniy va uning ustozlari, o‘z davrining Ptolemeysi degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan Abu Nasr ibn Iroq (Xorazmshoh Ma‘munning yaqin qarindoshi) shohning topshirig‘iga binoan yetuk olimu ulomalarga maktublar yo‘llab, ularni poytaxt Gurganjga taklif qildi. Natijada Samarqand, Buxoro, Paykant, Termiz, Nishapur, Balx, Marv va hatto arab Iroqdan o‘z davrining mashhur olimu fuzalolari Gurganjga keladi. Ular orasida asosan Sharq davlatlaridan ahli donishlar, astronom, matematik, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa, tibbiyot va boshqa ilmlarda nom chiqargan fan namoyandalari ko‘pchilikni tashkil etgan. Xususan, ular orasida yosh olim va tabib Ibn Sino, Masihiy, shoir, faylasuf va tarixchi Ibn Xammor, astronom Mahmud al-Xo‘jandiy va boshqalar bor edi. Xorazmshoh Ali Ibn Ma‘mun olimlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlab, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi.

Xorazm Ma‘mun Akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O‘rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o‘rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko‘targanlar. Akademiya a‘zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san‘ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sugorish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

Jumladan, Ma‘mun akademiyasida samarali faoliyat olib borgan Abu Ali ibn Sino ham buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib bo‘lishi bilan birga ajoyib musiqa nazariyotchisi ham edi. Ibn Sinoning “Kitabush-shifa” (Shifo kitobi), “Donishnoma” (Bilim kitobi), “Kitabun najat” (Najot kitobi) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (Musiqiy ilmi haqida risola) kabi risolalari jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi [Ражабов. И. 2006, Б.17].

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri “Kitab ush-shifa” falsafiy xarakterda bo‘lib, unda muallif tabiiy-ilmiy qarashlari bilan birga musiqa nazariyasini ham yoritib beradi. Asar to‘rtta katta bo‘limdan iborat: mantiq, fizika (tabiiyot), aniq fanlar va metafizika. Aniq fanlardan biri musiqadir [Ибн Сино.1956].

Shuningdek, Ibn Sino matematikani ham to‘rt ilmga bo‘ladi: arifmetika, geometriya, astronomiya hamda musiqa [Ражабов. И. 2006, Б.18]. U musiqa bobida nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga va uning vositasi bilan bu masalani umumlashtirib berishga harakat etadi. Ulug‘ olimning musiqa madaniyati sohasidagi yuksak xizmatlaridan biri ham shu edi. Ibn Sino musiqa haqida maxsus ilmiy-nazariy asarlar yozish bilangina cheklanmaydi, balki musiqaga bag‘ishlangan asarlarini meditsina kitoblarida ham aks ettiradi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Ibn Sino o‘zining meditsinaga oid o‘lmas asarlarida, musiqaning hissiy ta‘sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarni davolashda uni yuksak qadrlaydi va shifo dasturi sifatida tavsiya etadi [Ражабов. И. 2006, Б.18].

Ma‘muniylar davrida Xorazmshohlar davlatida ilm-fan, madaniyat ravnaq topib, tashkil qilingan Xorazm Ma‘mun akademiyasida xizmat qilgan buyuk qomusiy olimlar, allomalar o‘zlarining ajoyib kashfiyotlari va asarlari bilan Xorazmshohlar davlatining mavqeini o‘z davri hamda keyingi davrlar uchun yuksak darajaga ko‘tardilar. Xorazmshohlar poytaxti Gurganjda “Dor-ul hikma va maorif” yoki “Majlisi ulomo” nomi bilan atalgan yirik ilmiy markaz o‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, hozirgi kunda Xorazm Ma‘mun akademiyasi va Ma‘mun universitetlarining faoliyat olib borishi zaminida davr poydevori sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Ma‘muniy Xorazmshohlar davrida faoliyat olib borgan allomalar Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida yangi bir davrni ochib berganlar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo‘llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shuni aytish kerakki, O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Umuman musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda umumlashmagan holda uchraydi. Bu materiallarni to‘plab, O‘rta Osiyo

xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'mun akademiyasi olimlari o'zlarining asarlarida Sharq musiqa nazariyasini sharhlab nazariy jihatdan asoslab berdilar va ularning asarlarida bu masala o'zining klassik ta'rifini topdi. Akademiya olimlarining musiqa ilmiga bag'ishlangan asarlari ko'p asrlar davomida Sharq musiqa nazariyasini sharhlab berishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSALAR.

Xorazm madaniy hayotining tiklanishi, uning jahon ahamiyatiga molik markazlardan biriga aylanishi va bu yerda o'z zamonasining yetuk olimlari yuksak ma'naviy namoyandalarining paydo bo'lishi mintaqaning tarixiy va madaniy taraqqiyotidagi bundan oldingi ko'p asrlik rivojlanish darajasi bilan bog'langan edi. Qolaversa, hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalishiga hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaralishiga zamin bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Anushteginiy-Xorazmshohlar davlati nafaqat shu o'lkada hukmronlik qildi, balki bir asrdan ortiq vaqt davomida bir tomoni Orol dengizidan Hind okeanigacha, ikkinchi tomondan Sirdaryo bo'ylaridan Qora dengiz sohillarigacha bo'lgan hududlarda katta imperiyaga asos solganlar. Ammo mamlakatimizning bu davrlari tarixi hanuz to'liq o'rganilmagan.

O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi ham hali yetarlicha o'rganilmagan. Umuman, musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to'plab, O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir. Demak, Xorazm Ma'mun Akademiyasi olimlarining ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur va xolisona tadqiq qilish tarixchi olimlarimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmshoh Ma'muniylar davlatining o'ziga xos madaniyati, tarixi, ilm fani taraqqiyoti hozirgi kunda ham o'zining qadimiy va zaminiy an'alarini butunligicha saqlab qolganligi, ijodiy va amaliy jihatdan yangilangan holda hozirgi hayotimizni har tomonlama boyitib, jahon ilm fani rivojiga ilhombaxsh va yorqin betakror sahifalarni taqdim etmoqda. Xorazmda qadimdan davom etib kelayotgan mumtoz adabiyot, professional musiqa san'ati baxshichilik va dostonchilik an'analari, ular repertuaridagi noyob dostonlar, qo'shiqlar va boshqa turli xil folklor asarlari yuqoridagi fikrni to'la isbotlaydi. Bugungi kun ijtimoiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan milliy musiqamizga bo'lgan yuqori e'tibor, mazkur sohaning yangidan-yangi qirralarini va jihatlarini shakllantirishga qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 17 noyabrda e'lon qilingan "O'zbek milliy merosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori va qator farmonlari fikrimizning isbotidir. Shu jihatdan, mazkur Qaror o'zbek milliy musiqasi tarixini o'rganish va Ma'mun akademiyasining tarkibida musiqashunoslik ilmida e'tibor topgan olimlarning nomlarini, faoliyatini hamda ularning boy ilmiy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda o'zbek milliy musiqa merosining jahondagi o'rnini yanada mustahkamlash uchun asos bo'la oladi.

Iqtiboslar / References / Сноски

[1] Бартолд.В.В. История Туркистана. История культурной жизни Туркистана. Соч.10 томах. -Т., част-И. Стр.15.

[2] Беруний. Танланган асарлар.И-том.-Тошкент,1968. -Б.29.

[3] Беруни. Памятники минувших дней. Абу Рейхан Беруни. Избранные произведения.Том-И. -Ташкент, 1957. – С. 20.

[4] Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати (Қадимий тарих саҳифалари)- Тошкент, "Шарқ", 1999. – Б.112.

[5] Жаҳон тарихининг муҳим саналари(Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача)/ Қ.Ражабов(ва бошқ). – Т: Ўзбекистон, 2011. – Б.133(616б).

[6] Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар далаги тарихи "Наврўз", 2016. –316 бет.

[7] Ирисов.А. "Беруний ва Ҳиндистон.-Т., 1963. –Б.16.

- [8] История Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Ташкент, 1976. –С.102.
- [9] Матякубов Ш.С., Жуманиязова Ф.Ж., Ражабова Д.Ш.. Маъмунийлар даврида Хоразм Маъмун академиясининг ташкил топиши ва унда Абу Райхон Берунийнинг илмий фаолияти //Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси. – Хива, 2022. – №12/3 – Б.57-60.
- [10] Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – Ч. III. гл-Х. Стр.115
- [11] <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xorazm-mamun-akademiyasi-uz/>
- [12] Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусикий тарихчаси. – Т., 1998.
- [13] Маҳмудов М. Хоразмшоҳ Маъмун академияси. – Тошкент: ТМИ, 2005. – Б.60.
- [14] Саъдуллаев А., Сатлиқов А. Хоразм Маъмун академияси (ташкил этилиши ва фаолияти). Урганч, 2005. – Б. 32;
- [15] Очерки истории медицины Хорезма, Ташкент, 1980. – С.43.
- [16] Шеримматов Ж.Ш. Хоразм мусиқа сан’ати тарихидан. Маданият ва сан’ат журнали. ISSN: 2181-4562 ISSN: 2181 – 4562. www.imfaktor.uz DOI Journal 10.56017/2181-4562. – Б.178.
- [17] Ражабов. И. Мақомлар. Т., 2006. – Б.17.
- [18] Матякубов О. Мақомот. -Т., 2004.
- [19] Фитрат А. Узбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т., 1993.
- [20] Матякубов О. Узбекская классическая музыка. II-III том.Т., 2015.
- [21] Матякубов О, Болтаев Р, Аминов Х. Хоразм танбур чизиғи. Т., 2010.
- [22] Azimboy Sadullaev. “Xorazm Ma’mun Akademiyasi”. Xiva 2000.
- [23] R. Shamsiddinov, Sh. Karimov, “Vatan tarixi” 1-kitob. –Toshkent. 2010. “Sharq” – В.228.
- [24] Тимофеев И. Бируни. Москва. “Молодая гвардия” 1986. 41, 42, 88, 107, 167, 198 бетлар.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000